

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MOSLASHISH DAVRIDA BOLALARNI QO'LLAB QUVVATLASH

Ahmadaliyeva Barchinoy Baxtiyorjon qizi

Qo'qon universiteti

Maktabgacha ta'lim 1-24-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20393906>

### Annotatsiya

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotiga ilk bor qadam qo'ygan kichik yoshdagi bolalarning yangi ijtimoiy muhitga ko'nikishi, ya'ni moslashish jarayoni eng qiziqarli va shu bilan birga murakkab mavzulardan biri hisoblanadi. Men talaba sifatida bog'chalarda amaliyot o'tash jarayonida shunga guvoh bo'ldimki, bola oila bag'ridan ajralib, notanish kattalar va tengdoshlar guruhiga qo'shilayotganda juda kuchli ruhiy siqilish va hayajonni boshdan kechiradi. Ko'pincha bu davrda bolajonlarimizda tinmay yig'lash, ovqat yemay qo'yish, uyquning buzilishi va atrofda gildardan o'zini olib qo'ochish kabi holatlar ko'p kuzatiladi. Aynan mana shu sababli, men o'z tadqiqotimda yangi kelgan bolalarning emotsional xavotirligini kamaytirish hamda ularni bog'cha sharoitiga stressiz, oson jalb qilish yo'llarini amaliy jihatdan o'rganishga harakat qildim.

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lim, hozirgi kunda, moslashish davri (adaptatsiya), bolani qo'llab-quvvatlash, tarbiyachi va bola, ota-onalar bilan hamkorlik, o'yin terapiyasi, individual yondashuv, stressni kamaytirish, emotsional holat, kichik yoshdagi bolalar, guruh muhiti, ruhiy salomatlik.*

### Kirish

Hozirgi kunda mamlakatimizda uchinchi renessans poydevorini yaratishda eng muhim bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim-tarbiya sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Pedagogika sohasining fundamental asoslariga tayanilgan holda yondashilganda, har bir bolaning shaxs bo'lib shakllanishi aynan maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanishi barchaga ayondir. Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib voyega yetishi, ularning ilk yoshidanoq qanday muhitda tarbiya topishi va jamiyatga qanday moslashishi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga doir juda ko'plab tarixiy farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi PF-152-sonli “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmonida har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ularga xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bundan tashqari, 2025-yil 19-martdagi PF-51-sonli “Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmon bilan bog'chalarda ta'lim-tarbiya jarayonini metodik jihatdan to'g'ri boshqarish tizimi yanada kuchaytirildi. Ushbu huquqiy islohotlar zamonaviy pedagoglar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Amaliyotchi mutaxassislar nafaqat ta'lim dasturlarini amalga oshirishni, balki bog'chaga ilk bor kelgan mitti qablarning ruhiy holatini chuqur tushunishni va ularni har tomonlama asrab-avaylashni o'rganishlari zarur.

Ma'lumki, bola uchun oila bag'ridan ajralib, mutlaqo notanish bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti muhitiga qadam qo'yish uning his-tuyg'ulari va ijtimoiy hayotidagi eng keskin burilish davri hisoblanadi. Bola shu paytgacha faqat ota-onasi, yaqinlari atrofida, o'zi o'rgangan

mikromuhitda yashagan bo'ladi. Bog'chaga kelganida esa u birdaniga yangi makromuhitga, qat'iy kun tartibiga, begona tarbiyachilarga va o'ziga o'xshagan o'nlab tengdoshlar guruhiga duch keladi. Mana shu o'tish davri ilmiy pedagogikada moslashish, ya'ni adaptatsiya jarayoni deb ataladi va bu davr ko'p hollarda bolajonlarimiz uchun juda katta ruhiy distress bilan kechadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, yangi qabul qilingan bolalarda dastlabki bosqichda tinmay yig'lash, ovqat eyishdan bosh tortish, guruhdagi faoliyatga qiziqmaslik va hatto stress oqibatida immun tizimi pasayib, tez-tez psixosomatik kasalliklarga chalinish holatlari ko'p kuzatiladi. Ayrim bolalarda esa xavotirlik tufayli uyquning buzilishi yoki atrofdagilarga nisbatan negativizm belgilari ham namoyon bo'ladi. Agar ushbu davrda bolaga professional darajada pedagogik yondashilmasa, uning ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirish qiyin kechadi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotida moslashish davrida bolalarni pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish har bir tarbiyachining eng birinchi professional vazifasi bo'lishi shart.

Ushbu ilmiy izlanish va metodik tavsiyalar aynan mana shu adaptatsiya davrini yengillashtirish hamda tizimli tashkil etishga qaratilgan. Tezis doirasida yangi kelgan kichik yoshdagi bolalarning emotsional xavotirligini qanday qilib kamaytirish va ularni guruh muhitiga stressiz, tushkunliklarsiz jalb qilish mumkin degan savolga ilmiy-amaliy javob izlashga harakat qilindi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir bolaning tipologik xususiyatlari, oiladagi ijtimoiy tarbiyasi va oliy asab faoliyati turlicha bo'lgani sababli ularning moslashuv jarayoni ham turlicha kechadi. Adaptatsiyaning yengil, o'rta va og'ir darajalari mavjud bo'lib, bu pedagogdan juda katta sabr va individual yondashuvni talab etadi. Amaliyotda bolani birdaniga kun bo'yi bog'chada qoldirmay, dastlabki kunlarda 1-2 soatga keltirish va vaqtni bosqichma-bosqich uzaytirib borishning "moslashuvchan grafigi" tavsiya etiladi. Bu metod boladagi "xavotirlilik", ya'ni onadan ajralish qo'rquvini kompensatsiya qilishga yordam beradi. Shuningdek, bolaning uydagi taomlanish va uxlash stereotiplarini dastlabki kunlarda inobatga olish, unga o'zining uydan sevimli o'yinchog'ini olib kelishiga ruxsat berish kabi differensial usullar ham yuqori samara beradi.

Bundan tashqari, mazkur ishda bolalarning diqqatini salbiy emotsiyalardan chalg'itish va ularni qiziqtirish uchun zamonaviy pedagogik va korreksion texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llari ishlab chiqildi. Xususan, "O'yin terapiyasi", "Art-terapiya" va sevimli qahramonlar ishtirokidagi "Ertak terapiyasi" elementlari bolalarda bog'chaga nisbatan ijobiy motivatsiyani uyg'otadi. Kichik yoshdagi bola dunyoni o'yin vositasida anglagani bois, tarbiyachining unga nisbatan empatiyasi (hissiy yaqinligi) va interaktiv o'yinlar tashkil qilishi bolada subyektiv xavfsizlik hissini shakllantiradi. Biroq, bu jarayonda faqat ta'lim tashkilotining harakati yetarli emas. Bolaning muvaffaqiyatli moslashishi uchun oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro integratsiyalashgan hamkorligi nihoyatda zarur. Ota-onalar ham bolani oila sharoitida bog'chaga ruhan tayyorlashlari, u yerdagi kun tartibiga moslashtirishlari kerak. Agar ota-ona va pedagog mutaxassislar yagona maqsad atrofida birlashib, bolaga bir xil talab va pedagogik takt bilan yondashsa, adaptatsiya davri bolaning ruhiy salomatligiga zarar yetkazmasdan, yengil va samarali o'tadi. Ushbu tezisda mana shu metodlarning ilmiy-amaliy asoslari va soha mutaxassislari uchun zaruriy metodik tavsiyalar batafsil bayon etilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilingan bolalarning ijtimoiy muhitga moslashish jarayonini samarali boshqarish, birinchi navbatda, pedagog-tarbiyachidan yuqori professional kompetensiyani va tizimli metodik yondashuvni talab etadi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar va amaliy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, adaptatsiya davrining kechishi ko'p jihatdan bolaning individual-

tipologik xususiyatlariga bog'liq bo'lib, u shartli ravishda uchta darajaga bo'linadi: yengil, o'rta va og'ir. Yengil darajali moslashuvda bolaning xatti-harakatlaridagi o'zgarishlar 10–15 kun ichida normallashadi, emotsional holat tez tiklanadi va tengdoshlari bilan muloqot tizimi oson shakllanadi. O'rta darajali moslashuvda bu jarayon bir oygacha cho'zilishi mumkin bo'lib, unda bolaning vazni biroz kamayishi, hissiy tushkunlik va yuqori nafas yo'llarining yengil kasalliklari kuzatiladi. Og'ir darajali moslashuv esa ikki oydan bir necha oygacha davom etib, bolaning nafaqat ruhiy holatiga, balki jismoniy salomatligiga ham jiddiy xavf tug'diradi. Bunday vaziyatda bolada mutlaq negativizm, chuqur depressiv holat va psixosomatik kasalliklar asorati namoyon bo'ladi. Shuning uchun, tarbiyachining asosiy vazifasi guruhdagi pedagogik muhitni to'g'ri tashkil etish orqali o'rta va og'ir darajali adaptatsiya holatlarining oldini olish hamda ularni yengil shaklga otkazishdan iboratdir.

Ushbu muammoni ijobiy hal etishda zamonaviy maktabgacha ta'lim pedagogikasida "moslashuvchan kun tartibi" yoki differensial grafik metodikasi yetakchi o'rin tutadi. Ushbu metodikaga ko'ra, bolaning bog'chadagi vaqti dastlabki uch kunda 1-2 soatdan oshmasligi lozim va bu vaqt mobaynida bola faqat sayr yoki erkin o'yin faoliyatlariga jalb etiladi. Keyingi bosqichlarda ota-onaning hamkorligida bu muddat tushlikkacha, so'ngra uxlash vaqtigacha va nihoyat to'liq kun tartibiga bosqichma-bosqich uzaytirib boriladi. Bu jarayonda bolaning oilaviy hayot tarzidagi dinamik stereotiplarini birdaniga o'zgartirmaslik muhim ahamiyatga ega. Masalan, bolaning uydagi ovqatlanish odatlari, taomlarni qabul qilish shakli va uxlashdan oldingi an'analari (masalan, sevimli o'yinchog'ini quchoqlab yotishi) tarbiyachi tomonidan vaqtincha inobatga olinishi kerak. Bola o'z uyidan olib kelgan o'yinchoq yoki biror buyum uning uchun tashqi dunyodagi xavfsizlik va barqarorlik ramzi bo'lib xizmat qiladi hamda "separatsion xavotirlik" (onadan ajralish qo'rquvi) hissini sezilarli darajada kompensatsiya qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga ilk bor qadam qo'ygan kichik yoshdagi bolalarning yangi ijtimoiy-pedagogik muhitga moslashish jarayoni o'zining murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Ushbu ilmiy-amaliy tadqiqot davomida aniqlangan qonuniyatlar va to'plangan materiallar muammoning mohiyatini chuqurroq anglash hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi fundamental xulosalarni shakllantirishga imkon beradi.

An'anaviy va qat'iy ta'limiy yondashuvlar adaptatsiya davridagi bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi isbotlandi. Aksincha, zamonaviy korreksion-pedagogik texnologiyalar, xususan, "O'yin terapiyasi", "Art-terapiya" va sevimli qahramonlar ishtirokidagi "Ertak terapiyasi" elementlari bolalardagi separatsion xavotirlik, qo'rquv va emotsional distress darajasini minimal darajaga tushirishga xizmat qiladi. Kichik yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi sababli, guruhda interaktiv va tinchlantiruvchi o'yin makonini tashkil etish bolaning asab tizimini himoya qiladi hamda uning ong ostida bog'chaga nisbatan ijobiy munosabat modelini shakllantiradi.

Adaptatsiya inqirozlarini samarali bartaraf etishning bosh mezonlari – bu ta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi izchil, pedagogik jihatdan integratsiyalashgan hamkorlik zanjiridir. Bola shaxsiga nisbatan uydagi va bog'chadagi talablar hamda kun tartibining unifikatsiyalashuvi bolaning yangi sharoitda subyektiv xavfsizlik hissini saqlab qolishini kafolatlaydi. Ota-onalar va pedagoglarning o'zaro ishonchli muloqoti yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixosomatik asoratlarning oldini oladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari uchun bir qator tizimli amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Jumladan, differensial va moslashuvchan grafikni qat'iy joriy etish orqali yangi qabul qilingan bolalarning bog'chadagi vaqtini dastlabki kunlarda cheklash, ularni qat'iy mashg'ulotlarga majburlamasdan, faqat sayr yoki

erkin o‘yin faoliyatlariga jalb etish lozim. Keyinchalik, bolaning individual ruhiy dinamikasiga qarab, bu muddat tushlikkacha, so‘ngra uxlash vaqtigacha va nihoyat to‘liq kun tartibiga bosqichma-bosqich uzaytirib boriladi. Shuningdek, bolaning oilaviy hayot tarzidagi odatlarini, xususan, taomlanish va uxlash stereotiplarini dastlabki davrda inobatga olish zarur. Bolaga o‘zi bilan birga uydan eng sevimli o‘yinchog‘ini yoki biror qadrli buyumini olib kelishiga ruxsat berish kerak, chunki bu buyum tashqi dunyodagi barqarorlik ramzi bo‘lib, boladagi onadan ajralish qo‘rquvini kompensatsiya qiladi.

Guruh xonalarida va sayr maydonchalarida bolalarning asab tizimini tinchlantiruvchi hamda mayda motorikani rivojlantiruvchi qum va suv terapiyasi burchaklarini tashkil etish, tarbiyachining hissiy yaqinlik ko‘rsatishi va bolalarni tushkunlikdan chalg‘ituvchi syujetli-rolli o‘yinlardan keng foydalanishi shart. Muassasa psixologi va direktor o‘rinbosari hamkorligida har bir yangi kelgan bola uchun adaptatsiya xaritasini yuritish va uning hissiy holatini kundalik kuzatib borish amaliyoti joriy etilishi kerak. Ota-onalar uchun klublarni tashkil etish, bolani bog‘chaga ruhan tayyorlash bo‘yicha metodik tarqatma materiallar va maslahatlar tizimini muntazam yo‘lga qo‘yish lozim.

Xulosa qilib aytganda, bolani maktabgacha ta‘lim tashkilotiga moslashish davrida samarali qo‘llab-quvvatlash – bolaning ruhiy va jismoniy salomatligini asrashning, uning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishining mustahkam po‘ydevoridir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
2. Mirziyoyeva S.Sh. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni intellektual va ijtimoiy rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022. – 180 b.
3. Hasanboeva O.U., Tojiyeva M.X., Toshpo‘latova Sh.K. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2019. – 240 b.
4. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.K. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2021. – 195 b.
5. Nishonova Z.T., Alimova G.X. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2018. – 210 b.
6. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020. – 230 b.
7. Ibragimova O.K. Bolani maktabgacha ta‘lim muhitiga moslashtirishning ijtimoiy-psixologik omillari // Psixologiya ilmiy jurnali. – Buxoro, 2023. – №3. – B. 45-51.
8. Shomurodova Sh.S. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida o‘yin bolalarni moslashtirish vositasi sifatida // JDPU ilmiy axborotnomasi. – Jizzax, 2024. – №2. – B. 112-118.
9. Tursunova M.A. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2017. – 160 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi. "Ilk qadam" maktabgacha ta‘lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent, 2022. – 144 b.